

**YOSHLAR - ZAMONAVIY TA'LIM VA SHARQONA TARBIYA
HAMDA ILMIY MUHIT DRAYVERI**

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi 5-bosqich
talabasi **Raxmonov Sarvarbek Ahmadjon o'g'li***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yoshlar-zamonaviy ta'lim va sharqona tarbiya. Zamonaviy ta'lim bu XXI asrning dolzarb mavzusi bolib ushbu sohada xayonaviy ta'lim turlarini oz ichiga oladi masalan kopuyuter, internet, wi fi, orqali ta'lim olish bu zamonaviy ta'lim turalari deb ataladi. Sharqona tarbiya o'z ichiga milliy qadriyatlar, odob-axloq normalarini oladi. U jamiyatda barqaror oilani shakllantirishda muhimdir. Sharqona tarbiya Sharq xalqlari uchun xos bo'lgan ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tizimi bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Kalit so'z: Yoshlar, zamon, ta'lim, sharqona, ta'lim, milliy qadriyat, odob-axloq, jamiyat

Abstract: This article discusses youth - modern education and oriental upbringing. Modern education is a relevant topic of the 21st century, and in this area it includes modern types of education, for example, learning via computers, the Internet, wi-fi, these are called modern types of education. Oriental upbringing includes national values, moral norms. It is important in forming a stable family in society. Oriental upbringing is a system of spiritual and moral values characteristic of the peoples of the East, and is based on the principles of upbringing passed down from generation to generation.

Keywords: Youth, time, education, oriental, education, national values, morality, society

Аннотация: В статье рассматривается современное образование молодежи и восточное воспитание. Современное образование является актуальной темой 21 века, и в этой области оно включает в себя виртуальные виды образования, например, обучение с помощью компьютеров, Интернета,

Wi-Fi, это так называемые современные виды образования. Восточное воспитание включает в себя национальные ценности и моральные нормы. Это важно для формирования стабильной семьи в обществе. Восточное образование — это система духовно-нравственных ценностей, характерных для народов Востока, основанная на образовательных принципах, передаваемых из поколения в поколение.

Ключевые слова: Молодежь, время, образование, восточный, воспитание, национальные ценности, мораль, общество

Yoshlar tarbiyasi – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi muhim omilshiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davr insonga moddiy ehtiyojlarini qondirish kabi birlamchi vositalar safiga ilm hamda tarbiyani xam qo‘shdi. Shu tufayli inson taraqqiyot sari dadil qadam qo‘ymoqda. Koinotni zabt etishi ham aynan ilmning mahsuli ekanini bugun hech kim inkor eta olmaydi. Mustaqil mamlakatimizda insoniyatni bag‘rikenglik, poklik va mexr-oqibatga chorlovchi muqaddas dinimizni asrab-avaylashga, yosh avlodni xalqimizning milliy va diniy qadriyatlariga hurmat-ehtirom ruxida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Imom Buxoriy aytganidek: “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”. Xar qanday orzu va maqsad ham ilm hamda tarbiya bilan amalga oshadi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma'noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O‘zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo‘yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Shunday ekan, bu mashaqqatli yo‘lda sobitqadam bo‘lib, bugunning imkoniyatlaridan keng foydalangan holda astoydil harakat qilaylik.

Bugungi kunda yoshlar orasida keng joriy etilgan ushbu besh tashabbusga ko'ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha yana 1,5 mingta to'garak tashkil etildi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xususan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ham talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 89 ta turli xildagi ilmiy, sport va badiiy to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, uch minga yaqin talabalar doimiy ravishda shug'ullanib qelmoqda. Ayniqsa bugungi kunda Zakovat intellektual o'yiniga prezidentimiz tomonlaridan berilayotgan e'tibor tufayli institut talabalari orasida qiziquvchilar soni keskin oshib bormoqda.

O'z navbatida, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta'lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlari umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi. Ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resurslar yurtimizda izlab topilmoqda. O'zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamoqda.

Zero, yoshlar–davlat va jamiyatning hal qiluvchi kuchi, ertasining egalari. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasidir.

Sharqona tarbiya oila, jamiyat va milliy o'zlikni saqlashda muhim o'rin tutadi. Bu tarbiya turiga xos bo'lgan yuksak qadriyatlar jamiyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, samimiylilik, va mas'uliyatni oshiradi.

Sharqona tarbiya qadriyatlari insonning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lishini ta'minlaydi. Bu qadriyatlar oila va jamiyat barqarorligi

uchun juda muhim bo'lib, ular milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharqona tarbiya boshqa millat oilalarida qadriyat sifatida

Xitoyda sharqona tarbiya Konfutsiy ta'limotlariga asoslanadi va u yerda bolalarga hurmat, itoatkorlik, ma'naviyat va katta yoshdagilarga nisbatan ehtirom ko'rsatishni o'rgatadi. Bu tarbiya bolalarga oilaviy munosabatlarning muhimligini, kattalarning tajribasidan o'rganishni va oila birligi uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishni targ'ib qiladi.

Hindistonda sharqona tarbiya ota-onaga hurmat, mehnatkashlik, axloqiy poklik va milliy qadriyatlarni saqlashga urg'u beradi. Hind oilalarida sharqona tarbiya, odatda, diniy va axloqiy qoidalariga mos keluvchi odob-axloq, sabr-toqat va insonparvarlik tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar:

Sharqona tarbiyani bolalarga singdirish uchun ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar va tarbiya darslarini tashkil etish;

Ota-onalar uchun tarbiya va farzandlar bilan samarali muloqot qilish bo'yicha trening va seminarlar o'tkazish;

Madaniy va diniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi badiiy va ma'rifiy adabiyotlarni keng jamoatchilikka taqdim etish;

Sharqona tarbiya tamoyillarini targ'ib qilish uchun ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar va ijtimoiy roliklar tayyorlash;

Yoshlar uchun axloqiy va ma'naviy mavzularda kechalar, forumlar va tadbirlar o'tkazish orqali ularning milliy va madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmatini oshirish. Yurtimiz mustaqilikka erishgandan so'ng xalqimiz tinch va osoyishta hayot kechirmoqda.

Albatta bu ne'matga qancha shukr qilsak arziydi. Chunki ta'lim tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda globallashuv turli tuman qarashlar asosida, deyarli barcha ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq ravishda talqin etilayotgan muammolardan biriga aylandi.

Hozirgi kunda globallashuv jarayoni yangi-yangi hudud va mintaqalarni, inson faoliyatining barcha sohalarini o'z domiga tortayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Ayniqsa, ba'zi nosog'lom kuchlar, mafkuraviy va ma'naviy sohada o'z g'oya hamda mafkuralarini singdirish, ta'sir doiralarini kengaytirish maqsadida, o'z manfaatlarini ko'zlab, globallashuv jarayonidan kengroq foydalanishga intilmoqdalar.

Biz esa bundan yoshlarizni himoya qilishimiz uchun ularning ma'naviyatlarini yuksak qilishimiz va kamolotga erishishlari yo'lida barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur hisoblanadi. Odam bolasiga beriladigan tarbiya, birinchi navbatda, ilmga, fanga asoslanmog'i, ta'limiy jihatdan to'g'ri tashkil etilmog'i lozim. Agar tarbiya pala-partish holda savodsizlarcha tashkil etilsa, tizimli va muntazam ravishda olib borilmasa, bunday «tarbiya» inson kelajagiga, shaxsning shakllanishiga faqat zarar keltiradi. Mana shu qoidalarga amal qilingandagina ta'lim-tarbiya o'zining pirovard maqsadiga erishishi - komil insonni voyaga yetkazishi mumkin.

Payg'ambarimiz Muhammad(a.s.) komil inson sifatlariga shunday ta'rif berganlar: "Komil musulmon shunday kishiki, boshqa musulmonlar uning tili va qo'lidan salomat bo'ladilar".

Foydalanilgan adabiyot:

1. <https://oilaqadriyat.uz/qadriyat/sharqona-tarbiya/>
2. *Falsafa. Qomusiy lug'at.* – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2004. – 496 bet.
3. *Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
4. <https://mirarabmadrasa.uz/oz/news/318>